



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 185-192 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### SUG'URTA BOZORIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI



**Abdullaeva Nazokat Amrulloevna**  
TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar"  
kafedrasi dotsenti, PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sug'urta bozorida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish asosida sug'urta xizmatlaining ko'rsatish imkoniyatlari va istiqbollari o'rganilgan. Onlayn sug'urta texnologiyalarning turlari va ulardan foydalanish asoslari ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan. O'rganish natijasida innovatsion texnologiyalarni sug'urta kompaniyalarida qo'llash orqali erishiladigan yutuq va kamchiliklar tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** sun'iy intellekt, innovatsiya, sug'urta telematikasi, blokcheyn texnologiyasi, smart-shartnomalar, sug'urta texnologiyalari, mobil ilovalar, P2P sug'urta.

#### **Kirish.**

Bugungi kunda axborot texnologiyalari zamonaviy sug'urta bozorida tobora talabchan va aqli mijozlar bilan muvaffaqiyatli muloqat qilish imkonini beruvchi harakatlantirivchi kuch hisoblanadi. Texnologik innovatsiyalarni yaxshi bilgan va ulardan kundalik hayotda faol foydalanayotgan iste'molchilar sug'urtalovchilardan ham tegishli texnologik xizmat ko'rsatishni kutishadi. Shuningdek, an'anaviy sug'urta bozori moliyaviy xizmatlarning globallashuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yangi muammolarga duch kelmoqda, bu esa sug'urtalovchilardan startap sug'urta texnologiyalarni joriy qilishni va qo'llab quvvatlashni taqozo etmoqda.

So'nggi yillarda texnologik innovatsiyalar sug'urta kompaniyalari va ularning mijozlarini sezilarli darajada o'zgartirdi, biznes yuritishning yangicha usulini taqdim qildi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Sug'urtada innovatsion texnologiyalarning mazmuni va mohiyati innovatsiyalar nazariyasi metodologiyasiga asoslanadi va u innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalariga, qonun va qonuniyatlariga, shuningdek ularni boshqarish tamoyillarniga asoslanadi.

Innovatsiyalar bu kompaniyaning asosiy raqobatbardoshustunligidir. 2013 yildagi Accenture Consumer-Driven Innovation tadqiqotlari(2013) shuni ko'rsatdiki, sug'urtalanuvchilar arzonroq narxda va qulay sug'urta mahsulotlarini talab qilishmoqda. Sug'urta sohasidagi texnologik yangiliklar sug'urta kompaniyalari tomonidan

foydalanimadigan sug'urta mahsulotlarini sotish kanallarining o'zgarishiga olib keldi. Kurbyanova va Abibullaev (2018) tadqiqotlarida blokcheyn-bu axborotni saqlash va uzatishning zamonaliviy tamoyili bo'lib, iqtisodiyotning ko'plab sohalarida, xususan, moliyaviy xizmatlar sohasida qo'llash uchun ulkan innovatsion salohiyatga ega texnologiya sifatida ilmiy jamoatchilikda keng muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqdaligi ta'kidlangan. Abduraxmonov fikriga ko'ra, sug'urtaga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning barcha yo'naliishlari ushbu sohaning sezilarli rivojlanishiga, iqtisodiy samarali tejamkor sug'urta mahsulotlarini yaratish orqali sug'urta bozorining o'sishiga olib keladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida sug'urta sohasida innovatsion texnologiyalar yordamida xizmatlar ko'rsatishning nazariy asoslari o'rganildi, mavzuga bog'liq ko'plab nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanimgan.

### **Tahlil va natijalar**

Sug'urta qildiruvchiga an'anaviy sug'urtaga nisbatan sug'urta texnologiyalari yordamida qurilgan sug'urta kompaniyasining xizmatlaridan foydalanish kengroq imkoniyatlar va huquqlar taqdim qiladi. Sug'urta qildiruvchi ya'ni mijozda sug'urta texnologiyalari yordamida hayotlarining istalgan jabhasini boshqarish va qadrlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Bugungi kunda sug'urta xizmatlarini mobil ilovalar orqali amalga oshirish ham mazkur texnologiyaning imkoniyatlarini ochib beradi. Masalan, mobil ilovalar orqali mijozlar uy yoki ishda o'tirib sug'urta mahsulotlarni taqqoslashlari, tanlashlari, tekshirishlari va qaror qabul qilishlari mumkin bo'ladi. Ular shaxsiy qurilmalari yordamida da'volar holatini tekshirib, o'zlarining hamda sug'urtalovchilarning vaqtini tejaschlari mumkin. Sug'urta texnologiyalari yordamida sug'urta kompaniyalari sug'urta qildiruvchilar bilan onlayn tranzaksiyalarni amalga oshirishda, mijozlarning ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda qat'iy xavfsizlik qoidalarini o'rnatishadi. Shuningdek, u sug'urtalovchilarga mijozlardan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa yangilangan va moslashtirilgan sug'urta mahsulotlarini taqdim qiladi.

Inshurtech sug'urta provayderlari uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- vaqt va pul tejaladi;
- firibgarliklarni oldi olinadi;
- avtomatik ravishda ma'lumotlarni yig'ish va ro'yxatga olish orqali anderayting kasbi soddalashtiriladi yoki umuman bekor qilinadi;
- smart kontraktlar yordamida yangi, innovatsion sug'urta mahsulotlari yaratiladi;
- da'volar avtomatlashtirilishi natijasida xatolar kamayadi va shartnomalar avtomatik ravishda bajariladi.

Peer-to-peer (P2P) sug'urta – bu sug'urta qildiruvchilar o'z kapitalini birlashtirish, o'z-o'zini tashkil qilish va o'z sug'urtasini o'zi boshqarish imkonini beradigan mahsulot hisoblanadi. An'anaviy sug'urta modelidan farqli o'laroq, turli xil xavf darajasiga ega bo'lgan katta guruh bir xil maqsad ostida birlashadi. Shuningdek, sug'urta mukofoti sug'urta davri oxirida P2P sug'urtalovchilar tomonidan foyda sifatida emas, balki sug'urta egalariga qaytariladi. Agar sug'urta qoplamlari shartnoma muddati davomida

jamg'armada mavjud bo'lgan miqdordan oshsa, qayta sug'urtalovchilar tomonidan qoplanadi.

P2P sug'urtasi a'zolari guruhga kim qo'shilishi, kimga sug'urta qoplamasni to'lab berilishi va jamg'armada qancha qolganligidan xabardor bo'lib boradilar. An'anaviy sug'urta kompaniyalariga ichki, mahalliy, davlat darajasida juda ko'p qoida va cheklovlar o'rnatilib, ushbu siyosatni qo'llab-quvvatlash uchun katta operatsion xarajatlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. P2P sug'urta esa oddiy va minimal qoida va talablar o'rnatilib, guruhlar odatda bir necha kishidan iborat bo'lgani uchun xarajatlar ham minimal bo'ladi. Natijada esa, a'zolar tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

P2P sug'urtada da'vo qilish, sug'urta qoplamasini qabul qilish osonroq, chunki protseduralari oddiy bo'lib, to'lov bir necha daqiqada amalga oshiriladi, chunki sug'urta texnologiyalari asosida ya'ni raqamlashtirilgan holatda faoliyat yuritadi. An'anaviy sug'urtada esa sug'urta qoplamarini uchun bir necha oy yoki ba'zi hollarda yillar davom etadi.

**Talab bo'yicha sug'urta** (on-demand insurance) – **bu sug'urta modeli bo'lib**, bunda sug'urta qildiruvchilar o'z smartfonlari orqali kerak bo'lgan jarayonda ya'ni xavf ostida bo'lganda sug'urta mahsulotini xohlagan vaqtda va joyda sotib olish imkonini beradi. Shuningdek, sug'urta xizmatini yoqish, o'chirish funksiyalari faqat sizga kerak bo'lgandagina sug'urta mukofotini to'lash imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtida sug'urta kompaniyalari texnologiyalardan foydalangan holda, mazkur sug'urta modeliga asoslangan sug'urta mahsulotlarini ko'paytirmoqda. Jozibador interfeys, moslashuvchanlik, bir marta bosish yo'li bilan sotib olish, bularning barchasi talab bo'yicha sug'urta (on-demand insurance) modelining iste'molchini jalg qiluvchi funksiyalaridan hisoblanadi. Mazkur sug'urta modeli sug'urta polislarini broker yoki kompaniya vakili bilan bevosita muloqot qilmasdan onlayn tartibda smartfonlar yordamida xarid qilish imkonini beradi. Umuman olganda, uzoq muddatli shartnomalarga, broker yoki agent bilan gaplashishlarga hojat qolmaydi. Chunki, sug'urta mukofoti mobil ilova orqali to'lansa, da'volar mobil chat interfeysi yordamida topshiriladi, tom ma'noda sug'urta xizmatlari barchasi oddiy smartfon orqali ko'rsatiladi.

On-demand insurance sohasi bilan shug'ullanadigan biznes egalari IoT (Internet of things), sun'iy intellekt (AI), bashoratli modellashtirish (predictive modeling), Big Data kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanmoqda.

Acumen Research va Consulting\_hisobotiga ko'ra, mazkur sug'urta modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish 2026 yilga kelib qariyb 30 foiz o'sishi kutilayotgan bo'lishiga qaramasdan ko'plab an'anaviy sug'urta kompaniyalari tomonidan hali ham bunday sug'urta mahsulotlari taklif qilinmayapdi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda jadal sur'atlarda o'sib borayotgan bir qancha startaplar mavjud. Ular:

<sup>1</sup> <https://www.acumenresearchandconsulting.com/>

**Trōv.** Ushbu kompaniya televizorlar, smartfonlar, kameralar va sport anjomlari kabi qimmatbaho narsalar uchun talab bo'yicha sug'urta qilishni taklif qiladi. Trōv hozirda faqat Avstraliya, Buyuk Britaniya va Arizona shtatida mavjud;

**Lemonade.** Ushbu kompaniya "metromile" avtomashinalarni talab bo'yicha sug'urtalash modeli asosida sug'urtalashni taklif qiladi. An'anaviy avtosug'urtada polis egalarining 65 foizi ortiqcha to'lov to'laydi. Metromile bilan esa sug'urta mukofoti haydovchining haqiqiy haydash odatlariga, masofasiga asoslangan holda to'lanadi. Polis egalari an'anaviy avtosug'urtaga to'langan pulga nisbatan o'rtacha 47 foiz tejashlari mumkin bo'ladi;

**Slice.** Ushbu kompaniya bron xizmatlarini taqdim qiluvchi Airbnb, HomeAway, Vrbo va FlipKey kompaniyalari uchun dam olish ijara sug'urtasini taklif qiladi.

**Bind Benefits.** Ushbu kompaniya mijozlarga o'zlarining hozirgi ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda talab bo'yicha sug'urta modeliga asoslangan tibbiy sug'urta mahsulotini taklif qiladi.

Mazkur sug'urta modeli har doim ham insonlar uchun birinchi tanlov bo'lmasligi, ammo muayyan sharoitlarda u foydali bo'lishi mumkin:

- an'anaviy sug'urta polislari qabul qilmagan risklar mazkur sug'urta modelida hisobga olinishi mumkin;
- faqat kerakli paytdagina sug'urtadan foydalanish an'anaviy sug'urta polislari uchun to'lanadigan sug'urta mukofotidan ko'ra arzonroq.

Doimiy ravishda sug'urta xizmatiga muxtoj bo'limgan, yoki yillik sug'urta mukofoti to'lashni istamaydigan iste'molchilar uchun talab bo'yicha sug'urta optimal yechim bo'lishi mumkin. Iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar talab bo'yicha (on demand insurance) sug'urta mahsulotlarini ko'payishiga sabab bo'lyapdi.

#### **Sug'urta telematikasi (Telematics insurance yoki usage-based insurance (UBI))**

Sug'urta telematikasi yoki foydalanishga asoslangan sug'urta avtomatik ravishda sug'urta ta'riflarini belgilash yoki sozlash uchun monitoring texnologiyasidan foydalanishga asoslangan. U ikki xil shaklda bo'lib, birinchisi, avtomobilni qancha masofada boshqarishga qarab qisman ta'riflarni belgilaydigan - kilometrga asoslangan avto sug'urta va ikkinchisi, avtomobilni qanchalik yaxshi boshqarilganiga qarab chegirmalar taklif qiluvchi hatti-harakatlarga asoslangan - avtosug'urta.

Sug'urta kompaniyalari avtombildagi texnologiya, plugin qurilmasi yoki mobil ilova orqali haydashni kuzatib boradi va avtomobil sug'urta mukofotlarini hisoblash uchun yaratilgan ma'lumotlardan foydalanadi.

Telematikaning asosiy afzalligi shundaki, u sug'urta kompaniyasiga ta'riflarni xavf darajasiga qarab moslashtirishga imkon beradi. Telematikaga asoslanmagan sug'urta ta'riflari esa sizni nazoratingizdan tashqarida bo'lgan turli omillar asosida masalan, yosh, yashayotgan hudud, u yerdagi xavf darajasi kabi omillarni ham hisobga oladi. Telematika texnologiyasi orqali avtomashina haydovchisini haydash qobiliyatini aniqlash va shundan kelib chiqib, sug'urta ta'riflarini hisoblash mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari turli xil telematik texnologiyalardan foydalanadilar. Masalan, ba'zi sug'urta kompaniyalari telematik monitoring ilovasidan foydalansa, boshqasi esa avtomobilga o'rnatilgan telematik qurilmadan, yana biri

haydovchining harakatini kuzatish uchun OnStar kabi avtomobil ichidagi texnologiyadan foydalanadi.

**Avtomobilni qancha masofaga boshqarishga asoslangan telematika** dasturi oddiy prinsip ya’ni kamroq haydasangiz, sug’urta mukofotini ham kamroq to’lashga qaratilgan yoki aksincha. Yillik yoki oylik sug’urta mukofotini o’rniga bosib o’tilgan masofa uchun to’lov amalga oshirilib, buning uchun avtomobilga telematik qurilma o’rnatish talab qilinadi.

**Misol uchun:** Asosiy stavka standart avtosug’urta polisiga o’xshab hisoblab chiqiladi, bunda sug’urta kompaniyalari yosh, haydovchilik stoji kabi omillar hisobga olinib, narxlar omillarga qarab farq qilsa-da, oyiga taxminan 20 AQSH dollaridan boshlanadi. Bosib o’tilgan kilometr uchun to’lanadigan stavka ham o’zgaradi, lekin odatda bir necha sentni tashkil qiladi. Agar bazaviy stavka 20 AQSH dollar bo’lsa va kilometr uchun stavka 4 sent bo’lsa, bir oyda 200 kilometr bosib o’tilgan masofa uchun 28 AQSH dollari va keyingi oyda 400 kilometr uchun esa 36 AQSH dollari to’lanadi.

Boshqa tomondan, agar yiliga belgilangan stavkadan ya’ni 12000 kilometrdan ortiq masofa bosib o’tilsa, telematikaga asoslangan sug’urta mahsulotidan ko’ra standart ya’ni an’anaviy avtosug’urta polisidan foydalanish qulayroq hisoblanadi.

**Haydovchining avtomashinani qay tartibda haydashini kuzatish orqali sug’urta kompaniyasi tomonidan chegirmalar, bonuslar taqdim qilishga asoslangan sug’urta.** Bunda xavfsiz, tartib qoidalarga amal qilgan holda haydagan haydovchi telematikadan foydalangan holda rag’batlantiriladi. Masofaga asoslangan telematikadan ya’ni, sug’urta mukofoti avtomashinani qancha masofa haydaganiga qarab qo’payishiga asoslansa, undan farqli ravishda, to’lov dasturlari orqali avtomashinani qanchalik yaxshi haydalganiga qarab sug’urta mukofoti kamaytiriladi.

Bunda, haydovchilar tomonidan telematik ilova yuklab olinadi va avtotransport vositalariga haydash odatlarini baholaydigan qurilma o’rnatiladi. Haydovchilar ular orqali haydashdagi kamchiliklarni anglashlari va yaxshilashlari hamda yaxshi odatlarni shakllantirish uchun foydalinishlari mumkin. Shartnomada ko’rsatilgan muddat oxirida polis egalari avtomobilni qanchalik yaxshi haydaganiga qarab chegirma oladilar.

Ba’zi sug’urta kompaniyalari chegirmani shartnoma muddati davomida saqlashga imkon bersa, ba’zilari esa haydovchilardan doimiy monitoringdan o’tishlarini va har bir yangilashda chegirmalarni o’zgartirishni talab qiladilar.

Sug’urta kompaniyalari 25 foizdan 50 foizgacha bo’lgan turli xil maksimal chegirmalarni e’lon qiladi. Aksariyat sug’urta kompaniyalari esa telematik ilova orqali to’plangan ma’lumotlar asosila ta’riflarni oshirmslikka va faqat chegirmani aniqlash uchun foydalinishga va’da berishadi. Biroq, ular haydash ko’rsatkichlariga bog’liq bo’lman sabablarga ko’ra, masalan, kredit reytingini pasayishi, ko’proq baxtsiz hodisa sodir bo’ladigan hududda bo’lish kabi omillar ta’siri ostida stavkalarni oshirishi mumkin.

Boshqa tomondan, optimal haydaydigan haydovchi uchun mazkur sug’urta texnologiyasidan foydalinish uni xavfsiz haydovchi ekanligini ko’rsatishga imkon beradi.

Sug’urta kompaniyalari to’playdigan haydovchi ma’lumotlari miqdori kompaniyaga qarab farq qiladi va davlat qoidalari qarab o’zgarib turadi. Masalan, AQSH sug’urta kompaniyasi “Allstate” faqat tezlikdagi bir qator o’zgarishlarni, shuningdek, kunning vaqtini, yurilgan masofa va boshqa bir nechta asosiy ma’lumotlarni, agar ilova o’rniga


plagian qurilma tanlangan bo'lsa haydovchining qayerda ekanligini yoki mashinani joylashgan joyini kuzatib boradi. O'zining joylashgan joyi va shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilishni xohlamagan haydovchilarga telematik dasturlar maqbul yechim hisoblanmaydi.

Har bir sug'urta kompaniyasining o'zi xos kuzatib borish va jazolash usullari mavjud. Ba'zi sug'urta kompaniyalari telefondan foydalanishni hatto suhbatlashmasa ham hisobga oladilar. Ba'zilari esa telefondan foydalanishni umuman hisobga olmaydilar balki, haydash vaqtini hisobga oladilar. Boshqalari esa doimiy monitoringni talab qilsa, yana biri odatlarni bir necha oy kuzatgandan so'ng chegirma beradi. Ushbu farqlarni hisobga olgan holda, qaysi biri haydovchining odatlari va imtiyozlariga mos kelishi dasturlarni solishtirish orqali amalga oshirish tavsiya qilinadi. Optimal telematik dastur mavjud emas. Ushbu dasturlar bir-biridan hatti-harakatlarni kuzatishi va chegirmalarni qanday hisoblashi jihatidan juda katta farq qiladi. Shu sababli haydovchilar haydash odatlaridan kelib chiqib o'zlariga eng mos keladigan dasturni tanlashlari kerak bo'ladi.

Bugungi kunda ba'zi avtomobil ishlab chiqaruvchilari General Motors, BMW, Mercedes-Benz, Hyundai va Toyota avtomobillarida avtomobilning standart qismi sifatida telematika texnologiyasi o'rnatilgan. Biroq, barcha o'rnatilgan standart telematik texnologiyalar sug'urta dasturlari bilan mos kelmaydi. Sug'urta dasturlaridan foydalanish uchun o'zining maxsus qurilmalarini o'rnatish yoki ilovani yuklab olish kerak bo'ladi.

Telematik qurilmalar avtomobil harakatini kuzatib boradi. Ko'pchilik avtomobilarga bort diagnostikasi (OBD) portiga o'rnatiladigan pligin qurilmasi o'rnatilsa, ayrimlariga old oynaga yoki avtomobilni boshqa joyiga o'rnatiladigan qurilmalar joylashtiriladi. Turli xil dasturlar har xil qurilmalardan foydalanadi.

Telematik ma'lumotlar avtomobil harakati haqida telematik tizim tomonidan to'plangan ma'lumotlar hisoblanadi. Yig'ilgan ma'lumotlarga odatda kunning vaqt, tezlikdagi keskin o'zgarishlar, telefondan foydalanish, masofa va joylashgan o'rni kabilarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari to'plangan ma'lumotlardan qanday foydalanishini bilish uchun avvalo foydalanadigan telematik dasturning shartnomani va maxfiylik bayonnomalar bilan tanishib chiqish lozim bo'ladi.



### 1-rasm. Sug'urta sohasidagi startaplar holati

Sug'urta sohasi innovatsion texnologiyalarni o'z faoliyati bilan uyg'unlashtirishi natijasida rivojlanib bormoqda. Inshurtech orqali sug'urta kompaniyalari mijozlarga sifatli va arzon mahsulotlarni taklif qilishlari mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham yildan yilga Insurtech va uni qo'llab-quvvatlovchi ekotizim ham o'sib bormoqda.

CBINSIGHTS ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda inshurtech startaplari eng yuqori nuqtaga chiqgan. 2022-yil 3-chorakda 4 foizga kamayib, 2,3 milliardni tashkil etgan. Bu yil bo'yicha eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Bitimlar ham bir oz pasayib, 140 tani tashkil qilgan.

### Xulosa

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarining innovatsion faoliyati sug'urta biznesining mijozga yo'naltirilgan modeliga o'tish, sug'urta biznesini raqamlashtirish, yangi mahsulotlarni joriy etish, sug'urta mahsulotlarini joriy etishda raqamli texnologiyalar va yangi kanallardan foydalanish, sug'urta zararlarini qoplashning yangi usullarni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda sug'urta sohasida innovatsiyalar rivojlanishiga - obyektiv va subyektiv omillar to'sqinlik qiladi. Obyektiv omillarga – mamlakatda Internet tezligi va sifati, aholining smartfonlar, planshetlar, mobil telefonlar bilan ta'minlanganlik darajasi bo'lsa, subyektiv omillarga - cheklangan startap loyihalar, sug'urta sohasiga ishonchning pastligi, aholining moliyaviy savodxonligi va moliyaviy qarorlar qabul qilish malakasi, shakllanmagan sug'urta madaniyati, sug'urta qildiruvchilarni an'anaviy mahsulotlarni sotib olishga sodiqligini keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sug'urta bozorining keyingi transformatsiyasi ko'proq darajada sug'urta mahsulotlarini sotib olish va sug'urta hodisalarini hal qilish bo'yicha shaxsiylashtirilgan takliflarni taqdim etishga qaratilgan raqamli xizmatlarni faollashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, asosan sug'urta sohasida hududiy nomutanosibliklar

mavjudligini hisobga olish kerak, bu esa mintaqaviy sug'urta bozorini rivojlantirishni ya'ni sug'urta madaniyati va moliyaviy savodxonlikni oshirishni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Саввина Н.Е. (2014) Инновации в российском страховании: мода или необходимость? // Финансы: Теория и Практика. 2014. № 6.
2. The Accenture 2013 Consumer-Driven Innovation Survey: Explore the data URL: <http://www.accenture.com/microsites/consumerdriveninnovation/Pages/index.aspx>.
3. Курьянова И.В., Абубулаев М.С. (2018) Возможности и перспективы применения блокчейн в страховании. Экономика и управление. Т. 4 (70). № 3. С. 101–107.
4. Апатова Н.В., Королев О.Л. (2017) Финансовая безопасность и технологии блокчейн // Научный вестник: финансы, банки, инвестиции. № 4 (41). С. 35–41.
5. Stev O'Hearn. (2019) Blockchain, a catalyst for new approaches in insurance // PwC. – Vol. 2, №2 – P. 3-4.
6. Sayegh K. (2018) Blockchain Application in Insurance and Reinsurance / K. Sayegh // Skema. Businessschool. – №1. – P. 38.
7. Белова Ю. А. Макарова Л.Н. Матохина А.В. (2021) Использование технологии блокчейн в страховании и кредитовании. VI Международная научно-практическая интернет-конференция. «Проблемы экономического роста и устойчивого развития территорий». г. Вологда, ФГБУН ВоЛНЦ РАН, 19 – 21 мая 2021 г.
8. Шарафетдинов А.Д., Терехова Т.Б. (2020) Блокчейн-технологии: вызовы и перспективы. Образование и право № 6 С. 238-243.
9. Гарипов Р.И., Максимова Н.Н. (2020) Исследование внедрения блокчейн в сферу страхования. Вестник совета молодых ученых и специалистов Челябинской области. – 2020. – №3 (30), Т. 1. – С. 62-65.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

